

## TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY- INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MOHIYATI VA O'RNI.

MRDI instituti

Libos dizayni kafedrası dotsenti

Rashidov Asomiddin Zayniddinovich

[a.rashidov3107@gmail.com](mailto:a.rashidov3107@gmail.com)

**Annotasiya:** Maqolada, talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati muallif tomonidan ta'rifi berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, dizayn, ta'lim.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi amaliyot darsining metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasini auditoriyadagi talabalar faoliyatiga mos ravishda yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlashi, talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga undovchi motivatsiyani vujudga kelishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Evropa va AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya 30- yillarda ta'lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta'lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda

yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o`quv mashg`ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko`maklashuvchi usul va vositalar yig`indisi” tarzida talqin etildi hamda o`quv jarayoniga o`quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko`rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi etakchi omillardir deya baholandi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob’ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o`quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o`rganishga alohida urg`u berildi. Mazkur o`rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediyalar vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e’tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar “soha (yoki yo`nalish)larning o`ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma’lum yutuqlarga erisha olishlari” ta’lim tizimining asosi sifatida belgilandi. O`qitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qo`llash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog`liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan to`g`ri tanlanishi, ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir etadi. Pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish, pedagogik texnologiyalarga “ijodiy” o`zgarishlar kiritilishi va ularning qayta shakllantirishi, ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda o`qituvchi va talabalar o`rtasida o`zaro hamkorlik negizida muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qiladi. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste’molga kiritilgan bo`lib, bugungi kunga qadar ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta’lim berilishini nazarda tutadi. O`tgan asrda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi etakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e’tirof etilgan bo`lsa, bugungi kunda pedagogning bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo`lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritib bo`lmasligi barchaga ayon. Mazkur o`rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediyalar vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e’tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar “soha (yoki yo`nalish)larning o`ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma’lum yutuqlarga erisha olishlari” g`oyasi etakchi o`rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug`aviy jihatdan (yunon. “humanus” – insoniylik, “humanitas” – insoniyat), bir

o`zakka ega bo`lsada, ularning har biri o`ziga xos ma`nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashtirish ta`lim muassasalarida o`rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar) ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi.

#### Asosiy adabiyotlar.

1. Innovatsion ta`lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To`raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 y.
2. Умарова, Г. (2022). Dizayner talabalarni shakllantirishda pedagog kasbiy kompetentsiyasining roli. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
3. Umarova, G. E. (2024). DIZAYNERNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDA NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(2), 137-140.
4. Рашидов, А. З. (2024, May). ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИИ В ДИЗАЙНЕ ОДЕЖДЫ: СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕНДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 3, No. 5, pp. 393-398).
5. Рашидов, А. З. (2022). МОДА ФЕНОМЕНИ: ТАРИХИ ВА РИВОЖИГА ДОИР АКТУАЛ ТАМОЙИЛЛАР. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 4(3).
6. Ernazarovna, U. G. (2022). THE FORMATION OF THE DESIGN TERM AND HISTORY OF DEVELOPMENT. *TA`LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 96-102.
7. Ходжаева, У. М. (2019). ДИЗАЙН КАК ИСКУССТВО. *Экономика и социум*.